BYUDJET SIYOSATIGA HUDUDLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGI JIHATIDAN BAHO BERISH OMILLARI

Boymurodov To‘lqin Azamatovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
byudjet siyosati, moliyaviy barqarorlik, hududiy byudjet, moliyaviy boshqaruv, soliq bazasi, moliyaviy indikatorlar, investitsiya muhiti.

Abstract
Ushbu maqolada byudjet siyosatining hududlarning moliyaviy barqarorligi jihatidan baholanish omillari tahlil qilinadi. Hududlar byudjetining mustahkamligi va barqarorligi ularning iqtisodiy rivojlanishi, ijtimoiy infratuzilmasi va investitsiya muhitiga bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, hududlarning moliyaviy holatini baholash uchun foydalaniladigan indikatorlar, soliq bazasi, grantlar va transferlar tizimi, hamda mahalliy daromadlarni oshirish yo‘llari tahlil qilinadi. Maqola hududlarning barqaror moliyaviy boshqaruvi uchun samarali byudjet siyosati strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Byudjet makroiqtisodiy miqyosda daromadlarni muvozanatlash vositasi sifatida ham o‘z vazifasini bajaradi. Mazkur masala nafaqat tarixiy jihatdan, balki zamonaviy jihatdan ham tadqiqotlarda o‘z aksini topmoqda.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, “byudjet” tushunchasi byudjet muassasalarining o‘zaro iqtisodiy munosabatlarini o‘zida aks ettirgan kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa ba’zi zamonaviy nazariyalarda tor munosabatlarni aks ettiradi, degan fikrni o‘rtaga olib chiqadi. Masalan, neoinstitusional nazariyada byudjet davlatning huquqiy tuzilmasi bilan bog‘liq tarzda yuzaga kelishi qayd etib o‘tiladi. Bu esa byudjetga ichki tomondan iqtisodiy munosabatlar yig‘indisi sifatida, tashqi tomondan huquqiy tuzilma tarzidagi qarashlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan, byudjet siyosatini ishlab chiqishda, fikrimizcha, unga ham iqtisodiy, ham huquqiy munosabat tarzida yondashish zarurati yuzaga chiqadi.

N.Kozlov mahalliy boshqaruv vakolatlarini amalga oshirishning moliyaviy ta’minotini o‘ziga xos jihatlarini ko‘rib o‘tadi (Kozlov N.I. Finansovoye

obespecheniye realizatsii polnomochiy mestnogo samoupravleniya avtoreferat ... k.e.n. – FGBOU VPO «Gosudarstvenniy universitet – uchebno-nauchno-proizvodstvenniy kompleks». - Orel, 2012. – s. 25.). Jumladan, Rossiya Federatsiyasi byudjet tizimi byudjetlari o‘rtasida daromad va xarajatlarni chegaralash tamoyilini xarajatni amalga oshirish vakolatlari adekvatligi va mezonliligini inobatga olgan holda shakllantirishni qayd etadi. Shuningdek, mahalliy boshqaruv organlariga o‘z funksiya va vazifalarini bajarishida ularga ma’lum daromadlarni biriktirish zaruriyatini asoslab beradi.

Umuman olib qaralganda, federativ davlatlarda hududiy byudjetlarning daromad va xarajatlarini mustaqil boshqarish vakolatlari keng ekanligi ma’lum. Hozirgi kunda unitar tuzilishga ega bo‘lgan davlatlarda ham hududlarning mazkur turdagi vakolatlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 1993 yildagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasida: “mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash”, degan qoida belgilangan. Mazkur qoida 2013 yilda kiritilgan o‘zgartirish natijasida yuzaga kelganligi inobatga olinsa, hududiy barqarorlikni ta’minlashda hududiy byudjet siyosati yuritilishining rolini oshirish nazarda tutilayotganligini anglash mumkin.

Bu borada, o‘zbekistonlik olimlardan A.Suvanov (Suvanov A.T. Mahalliy byudjetlar ijrosi samaradorligini oshirish yo‘nalishlari (Namangan viloyati misolida): i.f.n. avtoreferat. – Toshkent: BMA, 2005. – 21 b.) byudjet munosabatlariga institusional jihatdan qarab, uni tartibga solishda byudjetlararo munosbatlarni, ularni tartibga soluvchi daromadlarini qayd etadi. Jumladan, mahalliy byudjetlar oldida quyidagi muammolar mavjudligini ta’kidlaydi:

– byudjet mablag‘larining hududlar bo‘yicha taqsimotida xarajatlar ko‘lami hamda mablag‘larning cheklanganligi oqibatida byudjet resurslariga bo‘lgan ehtiyojni qondira olmaslik muammosi yechimini topish;

– byudjet tizimida mahalliy byudjetlarning mustaqilligi haqida va uning moliyaviy-iqtisodiy zaminlariga doir tortishuvlarning ilmiy asoslanishini hamda bu boradagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish;

– rivojlangan mamlakatlar byudjet amaliyotida keng qo‘llanilayotgan byudjet resurslarini byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlash jarayonidagi tegishli asoslar va mezonlarga amal qilish muammosi hamda ularning hal qilinishi.

Byudjet siyosatiga hududlarning moliyaviy barqarorligi jihatidan baho berish xorijlik olimlardan S.Bogomolovning ham ilmiy ishlarida namoyon bo‘ladi. Olim tomonidan byudjet tizimi barqarorligini ta’minlashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish taklif etilgan (Bogomolov S.V. Otsenka byudjetnoy ustoychivosti i effektivnosti upravleniya byudjetnimi sredstvami munitsipalnix obrazovaniy i subekta RF: avtoreferat … k.e.n. – GOU VPO «Nijegorodskiy gosudarstvenniy universitet im. N.I. Lobachevskogo». - Nijniy Novgorod, 2010. – s. 28.):

– hudud va hududiy tuzilmalar byudjetlari daromad/xarajatlari moddalarini guruhlashtirish va unifikatsiyalash orqali byudjet ijrosi hisoboti ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

– hududlarda byudjet barqarorligi jami indikatorlar tizimi asosida baholash uslubi ishlab chiqilgan;

– hudud va hududiy tuzilmalar byudjet barqarorligini moliyaviy oqimlarni inobatga olgan holda byudjet risklarini baholash tizimi shakllantirilgan;

– byudjet xarajatlari mezonlari tizimi ishlab chiqilgan.

Shuningdek, byudjet siyosatiga institusional jihatdan yondashgan olimlarimizdan biri X.Qurbonov (Qurbonov X.A. Byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish: i.f.n. ... avtoreferat. – Toshkent: BMA, 2010. – 22 bet.) hisoblanadi. U byudjetlararo munosabatlarni asoslashda quyidagi tamoyillarni keltirib o‘tadi:

– byudjet tizimining bo‘g‘inlari o‘rtasida byudjet xarajatlarining taqsimlanishi va biriktirilishi;

– byudjet tizimining turli darajalari bo‘yicha tartibga soluvchi daromadlarning chegaralanishi;

– turli darajadagi byudjetlarning tengligi;

– hududlar iqtisodiy salohiyatidan foydalanishni rag‘batlantirilishi.

Qayd etib o‘tilgan tadqiqotlarda byudjetning tuzilishi nuqtai nazaridan fikrlar ilgari surilgan. Bunda byudjetlarning xarajatlarini mablag‘ bilan ta’minlash, ularning mustaqilligini oshirish kabi jihatlarga e’tibor berilgan. Shuningdek, byudjetlararo munosabatlarni shakllantirishda ularning o‘rtasidagi vakolatlarning taqsimlanishi, ular tengligini ta’minlash va hududlar salohiyatidan kelib chiqib, tartibga soluvchi daromadlarni belgilash amaliyotiga urg‘u beriladi.